

Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 17 659,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qashqadaryo viloyati	17 659,5	110,8
G'uzor tumani	863,2	89,9
Dehqonobod tumani	210,4	101,9
Qamashi tumani	276,4	106,6
Qarshi tumani	1127,7	140,6
Koson tumani	942,6	112,9
Kitob tumani	560,7	122,3
Mirishkor tumani	226,2	108,3
Muborak tumani	737,6	88,5
Nishon tumani	886,5	109,1
Kasbi tumani	287,3	128,8
Ko'kdala tumani	167,6	119,5
Chiroqchi tumani	734,9	113,2
Shahrisabz tumani	585,2	120,3
Yakkabog' tumani	461,9	114,2
Qarshi sh.	4781,4	112,8
Shahrisabz sh.	629,8	134,8
Taqsimlanmaydigan hajm	4180,0	105,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025- yilning yanvar- dekabr oylarida Qashqadaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,5 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 115,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,4 % ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 14,1 % ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 125,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 124,7	675,1	1 651,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	135,0	118,7	108,4
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	9 726,7	1137,8	886,7
<i>o'sish sur'ati, %</i>	109,2	110,0	107,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2456,8	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	106,9	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 5195,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 118,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,7 % ga ko'payib, 29,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 39,9 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ni tashkil etgan holda 7040,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,7 % ni yoki 5424,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 106,9 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	5195,3	7040,0	5424,2	118,6	108,4	106,9
G'uzor tumani	162,9	500,6	199,7	46,0	115,7	115,9
Dehqonobod tumani	6,5	45,2	158,7	125,4	90,0	105,2
Qamashi tumani	13,7	104,7	158,0	40,5	121,2	113,9
Qarshi tumani	492,8	498,2	136,7	210,1	109,7	120,2
Koson tumani	210,6	488,2	243,9	90,6	115,7	135,4
Kitob tumani	114,5	185,6	260,7	186,1	120,3	107,0
Mirishkor tumani	25,9	70,3	130,0	74,7	137,6	105,6
Muborak tumani	481,7	195,9	60,1	79,1	108,8	135,2
Nishon tumani	684,1	135,4	66,9	101,9	142,6	145,2
Kasbi tumani	20,5	130,4	136,4	173,3	144,4	112,5
Ko'kdala tumani	4,1	115,0	48,5	120,3	115,0	131,8
Chiroqchi tumani	285,3	204,8	244,8	162,0	121,6	79,7
Shahrisabz tumani	79,1	409,9	96,2	201,6	109,1	135,2
Yakkabog' tumani	12,1	279,3	170,5	90,1	113,0	118,5
Qarshi sh.	1978,0	2537,9	265,5	135,3	100,5	104,9
Shahrisabz sh.	256,0	293,8	80,0	256,6	114,8	70,8
Taqsimlanmaydigan hajm	367,6	869,9	2967,4	108,3	104,8	105,5

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Shahrisabz shahrida (2024- yilning mos davriga nisbatan 256,6 %) Qarshi tumanida (210,1 %), Shahrisabz tumanida (201,6 %) va Qarshi tumanida (231,8 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Kasbi tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 144,4 %), Nishon tumani (142,6 %) va Mirishkor tumanida (137,6 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:	Ijrochi:	Manzil:
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi	G. Ziyatova 75 221-32-47 (7020)	180100, Qarshi shahri., Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy